2-ilova - Rivojlantirish xizmatlari

USHBU ILOVA 16.11.2022 YILGA QADAR AMAL QILGAN

E'tibor bering! OLX.uz servisi qoidalarining 7-bo'lim, 5-bandiga muvofiq: *OLX Group e'lon yoki uning pozitsiyasiga qiziqishning haqiqiy o'sishi sifatida tushuniladigan Rivojlantirish xizmatlarining samaradorligi uchun javobgar emas.*

1. Veb-sayt (Servis) funksionalining bir qismi sifatida OLX Group Foydalanuvchilarga pullik rivojlantirish xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, masalan:

1. **Yuqoriga ko'tarish** – potentsial manfaatdor Foydalanuvchilarga E'lonni taqdim etish uchun ro'yxat ko'rsatilgan sahifada E'lonni o'rnini o'zgartirishdan iborat - yuqoriga ko'tarilgan E'lon ushbu xizmat qo'llanilmagan shunga o'xshash e'lonlarga qaraganda yuqoriroq taqdim etiladi. Ko'tarilgan E'lonning pozitsiyasi va ko'rinishi uning qidiruv so'roviga mos kelishiga, ishlatiladigan saralash filtriga va unga ulanishi mumkin bo'lgan boshqa reklama xizmatlariga bog'liq bo'ladi;
2. **TOP-e'lonlar** - E'lon to'g'ri ajratilganligiga va ko'proq qiziqish uyg'otishiga ishonch hosil qilish uchun maxsus reklama belgisi bilan ma'lum bir kategoriyaning ro'yxat sahifasida E'lonni navbatma-navbat namoyish qilishdan iborat.
3. **VIP-e'lonlar** - foydalanuvchilarga ushbu kategoriyada alohida sahifani ochmasdan turib E'lonni namoyishini ta'minlash maqsadida ushbu E'lonni Veb-saytning (Servisning) bosh sahifasidagi maxsus bo'limlarda boshqa e'lonlar bilan birga navbatma-navbat namoyish qilishdan iborat.

2. Rivojlantirish xizmatlari quyida keltirilgan Yengil start, Tezda sotish va Turbo sotish (Rivojlantirish xizmatlari to'plamlari)da ham taklif etiladi:

Xizmatlar to'plami	Mazkur rivojlantirish xizmatlari to'plami doirasida taklif etilayotgan reklama xizmatlari		
	TOP-e'lonlar	Yuqoriga ko'tarish	VIP-e'lonlar
Yengil start	3 kun	-	-
Tezda sotish	7 kun	3 (2, 4 va 6 kundan keyin*)	-

Turbo sotish	30 kun	9 (3, 6, 9, 12, 15, 18, 21, 24 va 27 kundan keyin*)	7 kun

* Rivojlantirish xizmatlari to'plami ishga tushirilgandan buyon.

3. Ish beruvchining logotipi pullik xizmati Ish kategoriyasida mavjud. Ushbu xizmat Ish beruvchi yoki uning tijorat faoliyatini (logotipini) identifikatsiya qiluvchi grafik belgini Ish beruvchi tomonidan qo‘shishdan va uni E’lon va E’lonlar ro‘yxatida 30 kun davomida namoyish qilishdan iborat.

4. Individual Reklama xizmatlari quyidagi 6-bandga muvofiq OLX Group hisob raqamiga ushbu Xizmatlarni sotib olish uchun Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lov kelib tushgandan keyin kuchga kiradi va quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **E’lonni Yuqoriga ko‘tarishda** - E’lonni bir marta Yangilanishini sotib olganda u bir marta yangilanadi; E'lonni 7 kun Yangilanishini sotib olganda E’lon avtomatik ravishda kuniga bir marta, ketma-ket 7 kun davomida yoki Qoidalarning 4.8-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar yangilanadi. E'lonni Yangilanishi uning birinchi marta yangilanishi vaqtidan taxminan har bir tarafga nisbatan 2 soatlik vaqt oralig'ini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;
2. **TOPga joylashtirishda** - Foydalanuvchi tanlovi bo‘yicha - 3, 7 yoki 30 kun ichida ketma-ket yoki Qoidalarning 4.8-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar;
3. **VIP e'lonlarda** - 7 kun ichida ketma-ket yoki Qoidalarning 4.8-bandida ko‘rsatilgan E’lonni joylashtirish muddati tugaguniga qadar.

5. Invididual Reklama xizmatlari, Rivojlantirish xizmatlari to'plami va Ish beruvchi Logotipi uchun to'lov miqdori E’lon joylashtiriladigan Kategoriyaga va uning amal qilish muddatiga bog'liq, Rivojlantirish xizmatlari to'plamida esa - tanlangan to'plam turiga bog‘liq bo‘lib, nashr etish jarayonida ko‘rsatiladi.

6. Foydalanuvchi tomonidan e’lon olib tashlaganligi, Pozitsiyaning sotilishi, yoki Foydalanuvchi e'lon mavzusini 30 kunlik muddat tugashidan oldin dastlab qo'llanilganidan farqli pozitsiyaga ishora qiladigan tarzda o'zgartirgani sababli TOP E'lon, VIP E'lon, Rivojlantirish xizmatlari to'plami yoki Ish beruvchi Logotipi pullik xizmati qo'llanilgan E'lon joylashtirish muddatidan oldin tugatilgan taqdirda ma'lum bir xizmatni qayta faollashtirish mumkin bo'lmaydi.

7. Agarda Foydalanuvchi E’lon uchun Rivojlantirish xizmatini sotib olishga qaror qilsa va ushbu xizmatning amal qilish muddati E'lonning amal qilish muddatidan oshiq bo'lsa, E'lonning amal qilish muddati uzaytirilmaydi va Qoidalarning 4.8-bandiga muvofiq 30 kunni tashkil qiladi.

8. Mazkur ilova bilan tartibga solinmagan masalalarga nisbatan Qoidalar nizomlari qo‘llaniladi.